

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat pedagogika
instituti rektori

Sh.Sh.Negmatova

2025-yil

**09.00.04-IJTIMOIIY FALSAFA
IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH
SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand-2025

TUZUVCHILAR:

- J.Ya.Yaxshilikov – Samarqand davlat pedagogika instituti Milliy g‘oya va falsafa kafedrasini mudiri, falsafa fanlari doktori, professor.
- A.N.Xaydarov – Samarqand davlat pedagogika instituti Milliy g‘oya va falsafa kafedrasini dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Dastur Milliy g‘oya va falsafa kafedrasining 2025-yil __-avgustdagi № __-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

ANNOTATSIYA

Ijtimoiy falsafa falsafaning kishilik jamiyatining mohiyati, kelib chiqishi, tarkibi, insonning jamiyatdagi o'rnini va roli to'g'risidagi alohida bir sohasi. Ijtimoiy rivojlanish yo'lida paydo bo'lgan muammolarni oqilona hal etish va jamiyat istiqbolini oldindan ko'rish imkonini beradi. Aynan ijtimoiy falsafa orqali jamiyat o'zligini anglaydi va rivojlanish istiqbollari belgilaydi. Bu soha kishilik jamiyatining eng umumiy falsafiy manzarasini yaratadi, ijtimoiy taraqqiyotning bosh maqsadi nima ekanligini o'rganishga qaratilgan. Bu yo'lida jamiyat taraqqiyotining shakllanishi va amalga oshirishda ilmiy uslubiyatga asoslanish ijobiy ijtimoiy tajribadan maqsadga muvofiq samarali foydalanish zarurati ijtimoiy falsafani har tomonlama rivojlantirishni taqozo etadi.

Kishilik jamiyatining mohiyati, kelib chiqishi, tarkibi, insonning jamiyatdagi o'rnini va roli to'g'risidagi alohida soha. Ijtimoiy falsafa faqatgina umumiy bilim va tushunchalar majmuasi bo'lmasdan, balki ijtimoiy rivojlanish yo'lida paydo bo'lgan muammolarni hal etishga va jamiyat istiqbolini oldindan ko'ra bilishga qaratilganligi. Ijtimoiy falsafa orqali jamiyat o'zligini anglaydi va rivojlanish istiqbolini belgilaydi. Ijtimoiy falsafa jamiyat va insonni tatbiq etish bilan emas balki ijtimoiy gumanitar fanlar yutuqlariga tayangan holda jamiyat to'g'risida falsafiy jamiyatlar tizimini yaratishi hamda ijtimoiy voqea va jarayonlarning ilmiy bilishning metodologik asoslarini ishlab chiqishi. Kishilik jamiyatining eng umumiy falsafiy manzarasini yaratadi. Jamiyat haqida muayyan qarashlar tizimini yaratadi. Ijtimoiy falsafa ijtimoiy gumanitar fanlarning metodologik asosi ekanligi. Ijtimoiy falsafa jamiyatga yaxlit va bir butun tizim sifatida qaraydi va ijtimoiy organizmning normal ishlashi uchun har bir a'zoning qanday rol o'ynashini ijtimoiy taraqqiyotning bosh maqsadi nimadan iborat ekanligiga qaratadi.

Ijtimoiy falsafa jamiyatning falsafiy mushohada qilishga qaratilgan. Inson borlig'i va ijtimoiy jarayonlar umumiy aloqadorlikda tahlil etiladi. Ijtimoiy falsafada inson va uning faoliyatida moddiy va ma'naviy hodislarning o'zaro nisbati. Ijtimoiy falsafa ijtimoiy hayotni yaxlit va bir butun hodisa sifatida o'rganadi. Jamiyat tuzilishi va rivojlanishdagi umumiylikni ochish, ijtimoiy hayot sohalarining o'rnini ko'rsatib berishi, inson borlig'i va ijtimoiy mohiyatini yoritishi, insoniyat tarixining mohiyatini tushuntirib berishi bilan ijtimoiy fanlar uchun metodologik asos vazifasini o'tash.

KIRISH

09.00.04. – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha kirish imtihoni ilmiy-pedagogik kadrlarni davlat attestatsiyasidan o'tkazishning tarkibiy qismidir. Ijtimoiy hodisalarni yaxlit, bir butun hodisa sifatida tadqiq etish fanning maqsadini tashkil etadi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun ijtimoiy hodisalarning rivojlanishini, jamiyat hayoti va taraqqiyoti, inson kamolotidagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilish kabi vazifalarni bajarilishi bilan bog'liqdir.

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha tuzilgan imtixon dasturi umumiy falsafa fanining bir tarmog'i bo'lib, ilmiy xodimni yuqori malakali mutaxassis bo'lishi uchun eng muhim bilimlarni o'z ichiga oladi. Imtixon topshiruvchi tadqiqotchi yuqori darajada nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishi, ijtimoiy falsafaning boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlar bilan bog'liq ilmiy-metodologik masalalardan xabardor bo'lishi, shu bilan birga u o'z bilimidan ilmiy va amaliy vazifalarni to'g'ri hal etishda foydalana bilishi lozim. O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida, jamiyat hayotida falsafiy bilimlar to'g'risidagi nazariy va amaliy tasavvurlarni o'zgartirib, jamiyat faoliyati rivojiningmutlaqo yangi asoslari ishlab chiqilishini taqazo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining ijtimoiy hayotdagi o'rni, jamiyat iqtisodiy hayotini tarkibiy o'zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda "Ijtimoiy falsafa" fani muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizning dadil taraqqiyot odimlari, yurtimizda hamda jahonda kechayotgan murakkab ijtimoiy jarayonlarni to'g'ri anglash mustaqil hayotga qadam tashlayotgan yoshlar uchun nihoyatda muhim. "Ijtimoiy falsafa" fani yoshlarga jamiyatni, unda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning mohiyatini to'g'ri idrok qilish va shu asosda o'z kasbiy faoliyatini samarali olib borish imkonini beradi.

Dasturda falsafiy muammolarga yangicha falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan yondashildi, nazariya va amaliyot uyg'unligiga alohida e'tibor qaratildi.

Dasturning maqsadi – zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish hamda ularda o'z-o'zini anglash va analitik fikrlash ko'nikmasi va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Dasturning vazifalari:

- falsafiy bilimlar, qonunlar va kategoriyalarni o'rganish va maqsadli faoliyat olib borish;
- jamiyat hayotidagi ijtimoiy jarayonlarga falsafiy tafakkur nuqtai nazaridan yondashish, voqealarga shaxsiy, ijodiy tanqidiy baho berish;
- o'z-o'zini ma'naviy, ahloqiy va jamiyatni demokratlashtirish jarayonida faol ishtirok etish hissini tarbiyalash.

ASOSIY QISM.

Ijtimoiy falsafa fanining bahs mavzusi va vazifalari

Falsafa, ijtimoiy falsafa. Ular o'rtasidagi umumiy tomonlar va o'zigaxoslik. Ijtimoiy falsafa jamiyat haqidagi falsafiy bilimlar majmui sifatida. Ijtimoiy falsafa va ontologiya. Ijtimoiy falsafa vagnoseologiya. Ijtimoiy falsafa va metodologiya. Ijtimoiy falsafa va antropologiya. Ijtimoiy falsafaning predmeti, o'rganish ob'ekti. Ijtimoiy falsafaning asosiy muammolari: jamiyat, inson, ijtimoiy taraqqiyot va ijtimoiy bilish. Ijtimoiy falsafaning tayanch tushunchalari. Jamiyat, inson, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy bilish, madaniyat, ma'naviyat, ijtimoiy hayot, tadirijiy rivojlanish, inqilobiy rivojlanish, ijtimoiy-siyosiy tizim, ijtimoiy xavfsizlik, mustaqillik, ijtimoiy hamkorlik, fuqarolik jamiyati, shaxs. Ijtimoiy falsafaning jamiyat hayotidagi o'rni va funksiyalari. Ijtimoiy falsafaning ijtimoiy-gumanitar fanlarorasida tutgan o'rni.

Ijtimoiy falsafa tarixi

Ijtimoiy falsafaning shakllanishi va rivojlanishining asosiy davrlari. Ijtimoiy falsafa - jahon falsafasi tarixining tarkibiyqismi: Qadimgi Sharqda shakllangan ilk ijtimoiy-falsafiy qarashlar. Xitoy, Xindiston, Markaziy Osiyo. Qadimgi Yunon faylasuflariningijtimoiy-falsafiy qarashlari. Suqrot, Aflotun, Arastu. O'rta asrlar Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino. O'rta asrlarda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy qarashlar. Foma Akviniski. G'arbiy Yevropa Uyg'onishdavridagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar. Tomas Mor. TommazoKampanella.

Yangi davr G'arbiy Yevropa olimlarining ijtimoiy-falsafiy g'oyalari. XVII-XVIII asrlarda shakllangan ma'rifatparvarlik g'oyalari. TomasGobbs. Sharl Lui Monteske. Jan Jak Russo. Nemis mumtoz falsafasida jamiyat va inson muammolari. Ijtimoiyfalsafaning fan sifatida shakllanishi. Gegel. Feyerbax. K. Marks, Ogyust Kont, Gerbert Spenser.

XX asr va hozirgi davr ijtimoiy falsafasi taraqqiyoti Yemil Dyurkgeym, Osvald Shpengler. Karl Yaspers. Anri Bergson. O'zbekistonning birinchi Prezident Islom Karimov asarlarida ijtimoiy falsafa mustaqilligi va ijtimoiy falsafiy fikrlar taraqqiyoti. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.

Jamiyat – yaxlit tizim sifatida

Jamiyatning falsafiy talqini. Jamiyat ijtimoiy falsafaningtadqiqot ob'ekti sifatida. «Jamiyat» tushunchasining ma'nosi. Jamiyatning mohiyati. Jamiyat ob'ektiv borliqning tarkibiy qismi, tabiat taraqqiyotining mahsuli va ko'rinishi. Jamiyatda amal qiladigan qonunlar, ularning o'ziga xos jihatlari. Jamiyat – yaxlit tizim sifatida. Jamiyat hayoti va uning o'ziga xos jihatlari. Barqarorlik va beqarorlik. Onglilik va ongsizlik. Tartib va tartibsizlik. Jamiyat hayotining asosiy sohalar. Jamiyatning iqtisodiy hayoti. Jamiyatning siyosiy hayoti. Jamiyatning ijtimoiy hayoti. Jamiyatning ma'naviy hayoti. Jamiyat. Ideal jamiyat. Axborotlashgan jamiyat. Fuqarolik jamiyati.

Fuqarolik jamiyati

Ideal jamiyat. Fuqarolik jamiyati tushunchasi. Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi falsafiy qarashlar. Fuqarolik jamiyatini barpo yetish ijtimoiy taraqqiyot yo'nalishi sifatida. Fuqarolik jamiyatining tuzilishi. Fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari - fuqarolik jamiyati shakllanishining bosh omili. Fuqarolik jamiyati institutlari. Mahalla - O'zbekistonda fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organi sifatida. Fuqarolik jamiyatini barpo etish va rivojlantirishda siyosiy va huquqiy madaniyatning o'rni. O'zbekistonda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati. Birinchi Prezident I.Karimov fuqarolik jamiyatini barpo etish vazifalari to'g'risida. «Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari» tamoyili va uning mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi o'rni.

Jamiyat hayoti va taraqqiyoti omillari.

Tabiat va jamiyat, ular orasidagi uzviy aloqadorlik. Tabiat, inson va jamiyat orasidagi uzviy bog'liqlik va aloqadorlikning falsafa va fan tarixida qo'yilishi. Jamiyat tabiat taraqqiyotining davomi, bio va sotsioevolyusiyaning mahsuli va ko'rinishi sifatida. Jamiyatga taraqqiyotning tabiiy omillari: geografik muhit, demografik omil. (Aholi zichligi). Geografik muhit va uning jamiyatga ta'siri. Tabiat jamiyat hayoti va taraqqiyotining tabiiy asosi va sharti.

Kosmosfera, noosfera, biosfera tushunchalari to'g'risida. V.M.Vernadskiyning noosfera konsepsiyasi. Geografik muhit va jamiyat orasidagi dialektik aloqadorlik. Tabiatning jamiyatga va jamiyatning tabiatga ta'siri. Geografik determinizm nazariyasi. Geografik siyosat tushunchasi. Geografik siyosat davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida. O'zbekistonning geografik siyosati.

Demografiya demografik omil. Aholi zichligi tushunchasi. Aholi zichligi qonunining jamiyatda amal qilish xususiyatlari. Demografiya - aholi, nufus haqidagi fan. Jamiyatdagi demografik jarayonlar. Migratsiya. Urbanizatsiya, Ruralizatsiya. Demografik jarayonlarning jamiyat hayoti va taraqqiyotiga ta'siri. Jamiyatning demografik tarkibi. Demografik muammolar. Demografik siyosat. O'zbekistonning demografik siyosati. Jamiyat hayoti va taraqqiyotiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar. Ishlab chiqarish. Moddiy ishlab chiqarish. Ma'naviyat. Madaniyat. Qadriyatlar. Milliy g'oya.

Jamiyatning iqtisodiy hayoti

Jamiyatning iqtisodiy hayoti tushunchasi. Moddiy ishlab chiqarish jamiyat iqtisodiy hayotining asosi. Moddiy ishlab chiqarish tushunchasi. Texnika, uning taraqqiyoti. Texnologiya. Texnik inqiloblar, ularning moddiy hayotga ta'siri. Texnika taraqqiyotida fanning tutgan o'rni. Fan-texnika inqilobi. Moddiy iqtisodiy ishlab chiqarish usuli va uning tarkibiy tuzilishi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari. Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ularning tarkibi. Ishchi kuchi. Ishlab chiqarish vositalari. Ishlab chiqarish munosabatlari va uning o'ziga xos tomonlari. Mulkiy munosabat - ishlab chiqarish munosabatining asosi sifatida. Mulk tushunchasi. Mulk shakllari. Intellektual mulk. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida mulkchilikning xilma-xil shakllarini vujudga

keltirishning ob'ektiv zarurligi. Tadbirkorlikni qullab quvvatlash, ishlab chiqarishning ilg'or usullarini hayotga tadbiiq etish – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy isloxoatlarning bosh maqsadi. 2025-yil – “Aatrof muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”. Jamiyat iqtisodiy hayotida amal qiladigan qonunlar. Ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqaruvchi kuchlar xarakteri va taraqqiyot darajasiga muvofiq kelishi qonuni va uning amal qilish xususiyatlari.

Jamiyatning ijtimoiy hayoti

Jamiyatning ijtimoiy hayoti tushunchasi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi va uning asosiy elementlari. Jamiyatning etnik tarkibi. Urug'. Qabila. Elat. Millat. Milliy va millatlararo munosabatlar. Milliy hamjihatlik, millatlararo hamkorlik va hamjihatlik – ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot omili. Jamiyatning demografik tarkibi. Jamiyatning sinfiy tarkibi. Sinflar. Sinfiy munosabatlar. Stratalar. Mobillik ochiq demokratik jamiyat ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyati. Aholining istiqomat joylariga ko'ra ijtimoiy tarkibi. Shahar aholisi. Qishloq aholisi. Shahar va qishloq orasidagi munosabatlar. Aholining ma'lumot va kasbga ko'ra tarkibi. Ta'lim, uning jamiyatdagi o'rni.

Jamiyatning siyosiy hayoti.

Ijtimoiy siyosatni davlat siyosatining muhim yo'nalishi. O'zbekiston ijtimoiy siyosatning insonparvarlik mohiyati. Mamlakat siyosiy tizimi. Xalqaro siyosiy tizim. Jamiyatning siyosiy hayoti tushunchasi. Jamiyatning siyosiy tizimi. Siyosat. Siyosiy munosabatlar. Siyosiy ong. Siyosiy muassasa va tashkilotlar. Jamiyatning siyosiy tizimi. Davlat jamiyat siyosiy tizimining asosi. Siyosiy partiyalar. Jamoat tashkilotlari, ijtimoiy harakatlar. Nodavlat, notijorat tashkilotlar, ularning jamiyat siyosiy tizimidagi o'rni. Boshqaruv, uning tarixiy ko'rinishlari. O'z-o'zidan boshqaruv. Maxsus boshqaruv. Davlat. Jamiyat siyosiy hayotida davlatning o'rni va roli. Demokratik davlat va uning o'ziga xos xususiyatlari. Demokratik huquqiy davlat tushunchasi. Huquqiy demokratik davlat. Huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish – bosh strategik maqsadimiz. Demokratik davlatning inson huquqlari, erkinlari hamdamanfaatlarining ro'yobga chiqarishdagi o'rni. Konstitutsiya – demokratik jamiyat siyosiy va huquqiy hayotini tashkil etish takomillashtirishning muhim omili. Birinchi Prezident I.Karimov asarlarida jamiyatimiz siyosiy hayotini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.

Jamiyatning ma'naviy hayoti.

Jamiyatning ma'naviy hayoti. Ma'naviy hayotining tarkibiy elementlari. Ma'naviy ehtiyoj. Ma'naviy munosabat. Ma'naviy ishlab chiqarish. Ma'naviy o'zlashtirish. Jamiyat ma'naviy hayotida vorislik va yangilanish. Ijtimoiy ong – jamiyat ma'naviy hayotining asosi. Ijtimoiy ong strukturasi. Ijtimoiy va individual ong. Ijtimoiy ong sohalari. Kundalik va nazariy ong. Ijtimoiy ong darajalari. Ijtimoiy ruhiyat. Ijtimoiy mafkura. Milliy g'oya va mafkura. Milliy mentalitet. Milliy g'oya va ijtimoiy taraqqiyot. Ijtimoiy ong shakllari. Axloqiy ong. Diniy ong. Siyosiy va huquqiy ong. San'at. Fan. Falsafa. Ma'naviyatning hozirgi zamon talqini.

Ma'naviyat. Ma'naviy hayot. Ma'naviy tiklanish va taraqqiyot. Birinchi Prezident Islom Karimov asarlarida jamiyat ma'naviyat va takomillashtirish muammolari. Ta'lim tizimini isloh qilish – jamiyat ma'naviy hayotini takomillashtirishning muhim omili.

Fan

Fan – ijtimoiy ongning shakli. Maxsus fanning o'ziga xos xususiyatlari. Fan-ilmii bilimlar tizimi. Ilmiy faoliyat, uning o'ziga xos jihatlari. Fan – ijtimoiy institut. Fanlarning asosiy turkumlari. Fandagi differentsiyatsiya va integratsiya jarayonlari. Fanning vujudga kelishi va taraqqiyoti. Qadimgi Sharq mamlakatlarida ilmiy bilimlarning shakllanishi. Qadimgi Yunoniston fanning shakllanishi. Markaziy Osiyoda ilmiy bilimlarning shakllanishi va taraqqiyoti. Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlarining jahon fani taraqqiyotiga qo'shgan hissalar. XVI – XVII asrlarda Yevropada fan. Fan taraqqiyotining tarixiy bosqichlari. Klassik fan. Noklassik fan, Postnoklassik fan. Hozirgi zamon fani va uning o'ziga xos xususiyatlari. Axborotlashgan jamiyat va fan. O'zbekistonda ilm-fan rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.

Madaniyat. Qadriyatlar.

Madaniyat. Moddiy va ma'naviy madaniyat. Madaniyatning shakllanish va rivojlanish tarixi. Madaniyat tarixining jamiyat tarixi bilan uzviy aloqadorligi. Madaniyatning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni. Madaniyatda milliylik va umuminsoniylik. Sivilizatsiya madaniy – ma'naviy rivojlanishning mahsuli sifatida. Mustaqillik va madaniyatimiz taraqqiyotining istiqbollari. Yuksak madaniyatli inson, barkamol shaxsni tarbiyalash - fuqarolik jamiyatiniqaror toptirishning muhim omili. Qadriyatlar tushunchasining mazmuni. Qadriyatlar - ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili. Qadriyatlarning o'ziga xos jihatlari. Qadriyatlar tizimi va ko'rinishlari. Moddiy-ma'naviy qadriyatlar. Axloqiy, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar. Mustaqillik va qadriyatlar. Insonning eng oliy qadriyat ekanligi.

Inson. Shaxs

Inson – ijtimoiy falsafaning o'rganish ob'ekti sifatida. Inson va uning mohiyati. Antropologiya – inson to'g'risidagi fan. Inson muammosining falsafa tarixida qo'yilishi. Antik davr falsafasida inson muammosi. Qadimgi Hindiston. Xitoy. Markaziy Osiyoning qomusiy olimlari inson haqida. Tasavvuf falsafasi va insonning ruxiy-ma'naviy kamoloti. XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan inson haqidagi qarashlar. Tasavvuf falsafasi inson haqida.

Qadimgi Yunon faylasuflarining inson haqidagi qarashlari. O'rta asrlar G'arbiy Yevropa falsafasi insonning mohiyati to'g'risida. G'arbiy Yevropa Uyg'onish davri falsafasida inson muammosining qo'yilishi. Inson va insonparvarlik g'oyalar.

XVII–XVIII asrlar G'arbiy Yevropa falsafasida inson muammosi va ma'rifatparvarlik g'oyalar. Hozirgi davr G'arbiy Yevropa falsafasida inson muammosi. Ekzistensializm. Personalizm. Hozirgi zamon G'arbiy falsafasi insonning

mohiyati to'g'risida.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda shakllangan inson, haqidagi qarashlar, jamiyatni insonparvarlashtirish g'oyalari.

Inson – biosotsial va ruhiy mavjudot. Insonda tabiiylik va ijtimoiylik. Inson hayotining mazmuni. Inson, individ, shaxs, individuallik tushunchalari. Ularning o'ziga xosligi va ular orasidagi uzviy aloqadorlik. Shaxsning mohiyati. Shaxs tillari. Shaxs haqidagi hozirgi zamon qarashlari. Shaxsning shakllanishida oila, mahalla, ta'lim-tarbiya muassasalarining o'rni. Erkin, mustaqil shaxs tushunchasi. Ma'naviyat va uning mustaqil shaxsning shakllanishidagi o'rni.

Jamiyat va shaxs

Jamiyat va shaxs, ularning uzviy birligi va aloqadorligi. Jamiyat va shaxs orasidagi o'zaro aloqadorlik haqidagi falsafiy qarashlar. Jamiyatning shaxsga ta'siri. Shaxsning jamiyatga ta'siri. Shaxs erkinligi va mas'uliyati. Tanlov erkinligi. Shaxsning tarixiy tiplari. Shaxsiy qaramlik. Mulkiy qaramlik. Qaram shaxs. Shaxs mustaqilligi. Mustaqil shaxs. Shaxsning erkinligi va mas'uliyati. Iqtisodiy erkinlik. Siyosiy erkinlik. Ma'naviy erkinlik. Inson erkinliklari va haq-huquqlari. Erkin fuqarolik jamiyati va shaxs.

Ijtimoiy taraqqiyot tabiiy-tarixiy jarayon sifatida.

Ijtimoiy taraqqiyot. Progress. Regress Ijtimoiy taraqqiyot tabiiy- tarixiy jarayon sifatida. Ijtimoiy taraqqiyot haqidagi qarashlar. Ijtimoiy taraqqiyotning davriylik nazariyasi. Ijtimoiy taraqqiyotni oddiy, chiziqli rivojlanish shakli sifatida tushunish. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi zamon konsepsiyalari. Ijtimoiy taraqqiyotga formatsion yondashuv. Ijtimoiy taraqqiyotga sivilizatsiyali yondashuv. Tarixiy jarayon muammosining hozirgi zamon falsafiy ta'limotlarida qo'yilishi va hal etilishi. Arnold Toynbi qarashlari Karl Yaspers tarixiy jarayonlar mazmuni haqida. Karl Popper, Fridrix Nisshe, Osvald Shpenglerlarning ijtimoiy taraqqiyot to'g'risidagi qarashlari.

Ijtimoiy taraqqiyot qonunlari tushunchasi. Ijtimoiy qonunlarning ob'ektiv xarakteri. Ijtimoiy taraqqiyot qonunlarining o'ziga hos hususiyatlari. Ijtimoiy taraqqiyotda ob'ektivlik va sub'ektivlik. Ijtimoiy taraqqiyotning shakl va ko'rinishlari. Inqilobiy va tadrijiy taraqqiyot. Ijtimoiy inqilob tushunchasi. Ijtimoiy inqilobning tarixiy taraqqiyotdagi o'rni.

Tadrijiy (evolyusion) taraqqiyot, uning o'ziga xos jihatlari. O'zbekistonning o'z ijtimoiy taraqqiyot yo'li - taraqqiyotning «o'zbek modeli». Jamiyat hayotidagi beqarorlik va barqarorlik. Jamiyatni insonparvarlashtirish hozirgi zamon ijtimoiy taraqqiyotning asosiy yo'nalishi sifatida.

Ijtimoiy taraqqiyot sub'ektlari va harakatlantiruvchi kuchlari

Ijtimoiy ehtiyoj, manfaatlar va ularning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni. Moddiy va ma'naviy ehtiyojlar. Manfaat va ehtiyojlar – ijtimoiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuchi. Ijtimoiy taraqqiyotning sub'ektlari tushunchasi. Xalq ommasi. Sinflar va millatlar. Shaxsning tarixdagi o'rni. Ijtimoiy taraqqiyotda inson omili. «Xalq ommasi» tushunchasi mazmuni. Xalq. Olomon. Ular orasidagi farq.

Xalq ommasining ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rnini. Sinflar va millatlar ijtimoiy taraqqiyot subyektlari sifatida. Ijtimoiy taraqqiyotga sinfiy yondashuvning cheklanganligi. Milliy ozodlik harakatlari va ijtimoiy taraqqiyot. Buyuk zod, tarixiy shaxs tushunchalari. Tarixda shaxsning o'rnini. Fatalizm, volyuntarizm nazariyalari. Ijtimoiy taraqqiyotda inson omili.

Sivilizatsiya.

Sivilizatsiya, uning o'ziga xos xususiyatlari. sivilizatsiya xaqidagi falsafiy qarashlar. Sharq sivilizatsiyasi. G'arb sivilizatsiyasi. Insoniyat – tarixning sub'ekti sifatida. Insoniyat taqdirining mushtarakligi. Hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasi, uning o'ziga xos xususiyatlari. Globallashuv va jahon. Insoniyat taqdiri masalasi. BMT ning Ming yillik rivojlanish maqsadlari Hozirgi davr: umumbashariy muammolar.

O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga intergatsiyasi.

Har bir xalq millatning jahon sivilizatsiyasiga qo'shilib borishi qonuniy jarayon sifatida. Jahon hamjamiyati: ayrimlik, o'ziga xoslik, umumiylikning namoyon bo'lishi. O'zbekiston xalqaro munosabatlarning subyekti. Jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi. O'zbekiston tashqi siyosatining mohiyati, asosiy yo'nalishlari va tamoyillari. O'zbekistonning jahon xamjamiyatiga integratsiyasilashuvi: ikki yoqlama va ko'p yoqlama hamkorlik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hamkorlik Xalqaro miqyosda tinchlikni mustahkamlash va barqarorlikni ta'minlashda O'zbekistonning tutgan o'rnini va roli. O'zbekistonning jahonhamjamiyatidagi nufuzining ortib borayotganligi. BMTning 72 sessiyasida Prezident Mirziyoyevning so'zlagan nutqi.

Ijtimoiy bilish. Jamiyatni ilmiy bilish va boshqarish.

Bilish. Ilmiy bilish. Ijtimoiy bilish, uning mohiyati va uning o'ziga xos jihatlari. Ijtimoiy bilish tarkibi. Ijtimoiy bilish sub'ekti va ob'ekti. Ijtimoiy xaqiqatga erishish – ijtimoiy bilishning maqsadi. Jamiyatni ilmiy bilish. Ijtimoiy bilish va uning darajalari. Empirik va nazariy bilish. Jamiyatni empirik bilish. Empirik bilish metodlari. Kuzatish. Ijtimoiy eksperiment. Statistik usul. Manbalar, hujjatlar bilan ishlash. Nazariy bilish va uning metodlari. Tarixiylik va mantiqiylik. Modellashtirish. Tarixiy analogiya. Ijtimoiy bashorat. Ijtimoiy bilish to'g'risidagi nazariyalar. Naturalizm. Gumanitarizm. Ijtimoiy bilishni jamiyatni anglash, boshqarish va kelajak istiqbollarini aniqlashdagi o'rnini.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2023
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947- sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni. 2019 yil 8 oktabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori. 2020- yil 6-noyabr.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fansohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. 2020-yil 6- noyabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” Farmoni. 2022-yil 28-yanvar.
7. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.488.
8. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.48.
9. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.104.
10. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б.56.
11. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. -Т.: «Ўзбекистон»НМИУ, 2020.
12. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: O'zbekistan, 2021. – Б. 464
13. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистонда эркин ва фаровон яшайлик. Т. 5. Т.: “Ўзбекистон”, 2023.
14. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислохатлар йўлини қатъий давом эттирамиз. -Т.: “Ўзбекистон”, 2023.
15. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. <http://president.uz/uz/lists/view/1063>.
16. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. – Т.: Ўзбекистон, 1994. – Б. 160.
17. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир 3-том. – Т.: Ўзбекистон 1996. 369-Б.
18. Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч қудратимизга, ҳамжихатлигимиз ва қатъий иродаимизга боғлиқ. Т-12. – Т.: Шарқ, 2004. 398-Б.
19. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид,

- барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. 326-Б.
20. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. -Т.: Ўзбекистон, 2011. 440-Б.
21. Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Т.: “Маънавият”, 2008. 123-Б.

II. Darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, monografiyalar, kitoblar, risolalar, entsiklopediyalar, lug‘atlar

22. Yaxshilikov J.Ya. Falsafa. Darslik. –Samarqand. SamDU nashriyoti, 2025.
23. Абдусаматов А.Э. Диншунослик. Дарслик. Тошкент: «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2018.
24. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. –Т.: «Янги аср авлоди», 2016.
25. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. –Т.: «Шарк», 2001.
26. Алиев Б., Ҳакимов Р. Коррупцияга қарши кураш. Монография. – Тошкент: «Янги аср авлоди», 2012.
27. Арасту. Ахлоқи кабир. – Т.: «Янги аср авлоди», 2015.
28. Афлотун. Давлат: насрий дoston. – Т.: «Янги аср авлоди», 2015.
29. Ёзиева У. Ахборотлар таҳдиддан химояланишнинг педагогик шартшароитлари. Монография. – Т.: «Akademnashr», 2016.
30. Ислам: энциклопедия. -Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2017.
31. Каримов И., Валиева С., Туленова К. Ижтимоий фалсафа (услубий қўлланма). - Т., 2008.
32. Конфуций. Сухбат ва мулоҳазалар. -Тошкент: «Янги аср авлоди», 2016.
33. Назаров Қ. Ғоялар фалсафаси. –Т.: Akademiya, 2011.
34. Назаров Қ. Фалсафа асослари. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2012
35. Негматова Ш.Ш. Ўзбекистонда соғлом рақобатни ривожлантиришнинг маънавий, ахлоқий ва ҳуқуқий жиҳатлари: Монография. – Т.: «Фан», 2016.
36. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. –Т.: «Ўзбекистон», 2013.
37. Румий Жалолиддин. Етти мажлис. -Тошкент: «Янги аср авлоди», 2018.
38. Румий Жалолиддин. Ичиндаги ичиндадур (фалсафий-маърифий асар).- Тошкент: «Янги аср авлоди», 2018.
39. Тўйчиев Б.Т. Социальная философия. – Тошкент: УзМУ, 2017.
40. Туленов Ж. Жамият фалсафаси. Олтинчи бўлим. – Т., 2001.
41. Тураев Б.О. “Борлиқ фалсафаси”. – Т.: “Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти”, 2013.
42. Тураев Б.О. “Онтология, гносеология, логика ва фан фалсафаси муаммолари”. Тикланган асарлар. 1-том, “Ўзбекистон миллий кутбхонаси нашриёти”, -Т.: 2015.
43. Тураев Б.Т. Синергетика моҳияти қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши. Монография. –Тошкент: «Наврўз». 2017.

44. Фалсафа: комусий лугат. Тузувчи ва масъул мухаррир Қ.Назаров, –Т.: «Шарк», 2004.
45. Хайридинов Б. ва бошқалар. Табиий фанларнинг замонавий концепцияси. Ўқув қўлланма. –Тошкент: «Ношир», 2014.
46. Чориев А. Инсон фалсафаси. – Т., 2006.
47. Шарипов М. Мантик. –Т.: ЎзМУ. 2003.
48. Шермухамедова Н.А. Фалсафа. 2-нашр. – Тошкент: “Идрис Абдурауф Нашр”, 2020.
49. Яхшиликков Ж.Я., Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя ва мафкура. Монография – Т.: «Фан», 2015.
50. Яхшиликков Ж.Я., Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. Дарслик. – Т.: «Чулпон» НМИУ, 2018.
51. Яхшиликков Ж.Я., Муҳаммадиев Н.Э. Техника ва информацион технологиялар фалсафаси. Дарслик. – Самарқанд: СамДУ, 2019.

III. Xorijiy adabiyotlar

1. Буянов В.С. Сущность глобализации //Глобализация: Учебник – М.: Изд-во РАГС, 2008.
2. Кастельс М. Информационная эпоха: Экономика, общества, культура. – М.: Изд-во «ВШЭ», 2000.
3. Чернов А. А. Становление глобального информационного общества. Проблемы и перспективы. -М.: Дашников и.К: 2003.
4. Моль С. Информационное воздействие в современном мире. -М.: Крымский мост, 2004.
5. Свитич Л.П. Социальная информатиология. -М.: Алгоритм, 2000.
6. Экономическая безопасность хозяйственных систем. Учебник. – М.: РАГС, 2001.
7. Окиновская Н.А. Хартия глобального информационного общества - Дипломатический вестник. – М.: 2000. – №8.
8. Дубровский Д.И., Вержбинский В.В. Категория информации (философский обзор). «Философские науки». – М.: 2006.
9. Барулин В.С. Социальная философия. –Москва. “ФАИР-ПРЕСС”, 1999.

IV. Internet saytlari

1. <https://president.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
2. <https://www.gov.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Hukumat Portali.
3. <https://strategy.uz> – Taraqqiyot strategiyasi Markazi.
4. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet.
5. <http://lex.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
6. <http://uza.uz> – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi.

09.00.04 - IJTIMOYIY FALSAFA IXTISOSLIGIDAN MALAKAVIY IMTIXON SAVOLLARI

1. Ijtimoiy falsafaning predmeti, o'rganish obyekti.
2. Ijtimoiy falsafaning asosiy muammolari: jamiyat, inson, ijtimoiy taraqqiyot va ijtimoiy bilish.
3. Ijtimoiy falsafaning jamiyat hayotidagi o'rni va funksiyalari.
4. Ijtimoiy falsafaning ijtimoiy-gumanitar fanlar orasida tutgan o'rni.
5. Ijtimoiy falsafaning shakllanishi va rivojlanishining asosiy davrlari.
6. Qadimgi Sharqda shakllangan ilk ijtimoiy-falsafiy qarashlar. Xitoy, Xindiston, Markaziy Osiyo.
7. Qadimgi Yunon faylasuflarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Suqrot, Aflotun, Arastu.
8. O'rta asrlar Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino.
9. O'rta asrlarda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy qarashlar. Foma Akviniski.
10. G'arbiy Yevropa Uyg'onish davridagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar. Tomas Mor. Tommazo Kampanela.
11. Yangi davr G'arbiy Yevropa olimlarining ijtimoiy-falsafiy g'oyalari. XVII-XVIII asrlarda shakllangan ma'rifatparvarlik g'oyalari. Tomas Gobbs. Shari Lui Monteske. Jan Jak Russo.
12. Nemis mumtoz falsafasida jamiyat va inson muammolari. Ijtimoiy falsafaning fan sifatida shakllanishi. Gegel. Feyerbax. K.Marks, Ogyust Kont, Gerbert Spenser.
13. XX asr va hozirgi davr ijtimoiy falsafasi taraqqiyoti Yemil Dyurkgeym, Osvald Shpengler. Karl Yaspers. Anri Bergson.
14. O'zbekistonning birinchi Prezident Islom Karimov asarlarida ijtimoiy falsafa mustaqilligi va ijtimoiy falsafiy fikrlar taraqqiyoti.
15. 2017-2021 yillar O'zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi.
16. Jamiyat ijtimoiy falsafaning tadqiqot ob'ekti sifatida.
17. «Jamiyat» tushunchasining ma'nosi va uning mohiyati.
18. Jamiyatda amal qiladigan qonunlar, ularning o'ziga xos jihatlari.
19. Jamiyat hayoti va uning o'ziga xos jihatlari. Barqarorlik va beqarorlik. Onglilik va ongsizlik. Tartib va tartibsizlik.
20. Jamiyatning iqtisodiy hayoti.
21. Jamiyatning siyosiy hayoti.
22. Jamiyatning ijtimoiy hayoti.
23. Jamiyatning ma'naviy hayoti.
24. Jamiyat. Ideal jamiyat. Axborotlashgan jamiyat. Fuqarolik jamiyati tushunchalari.
25. Fuqarolik jamiyati to'g'risidagi falsafiy qarashlar.
26. Fuqarolik jamiyatining tuzilishi.
27. Tabiat va jamiyat, ular orasidagi uzviy aloqadorlik.

28. Tabiat, inson va jamiyat orasidagi uzviy bog'liqlik va aloqadorlikning falsafa va fan tarixida qo'yilishi.
29. Kosmosfera, noosfera, biosfera tushunchalari to'g'risida. V.M.Vernadskiyning noosfera konsepsiyasi.
30. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi va uning asosiy elementlari.
31. Jamiyatning etnik tarkibi. Urug'. Qabila. Elat. Millat. Milliy vamillatlararo munosabatlar.
32. Jamiyatning demografik tarkibi.
33. Ta'lim, uning jamiyatdagi o'rni.
34. Jamiyatning siyosiy hayoti tushunchasi. Jamiyatning siyosiy tizimi.
35. Siyosat. Siyosiy munosabatlar. Siyosiy ong. Siyosiy muassasa va tashkilotlar.
36. Jamiyatning siyosiy tizimi. Davlat jamiyat siyosiy tizimining asosi.
37. Jamiyatning ma'naviy hayoti. Ma'naviy hayotining tarkibiy elementlari. Ma'naviy ehtiyoj. Ma'naviy munosabat. Ma'naviy ishlab chiqarish.
38. Jamiyat ma'naviy hayotida vorislik va yangilanish.
39. Ijtimoiy ong – jamiyat ma'naviy hayotining asosi.
40. Ijtimoiy ong strukturasi. Ijtimoiy va individual ong.
41. Ijtimoiy ong sohalari. Kundalik va nazariy ong.
42. Ijtimoiy ong darajalari.
43. Ijtimoiy ong shakllari. Axloqiy ong. Diniy ong. Siyosiy vahuquqiy ong.
44. Ma'naviyatning hozirgi zamon talqini. Ma'naviyat. Ma'naviy hayot. Ma'naviy tiklanish va taraqqiyot.
45. Fan-ilmiy bilimlar tizimi. Ilmiy faoliyat, uning o'ziga xos jihatlari.
46. Fanlarning asosiy turkumlari.
47. Fandagi differensiyatsiya va integratsiya jarayonlari.
48. Fanning vujudga kelishi va taraqqiyoti. Qadimgi Sharq mamlakatlarida ilmiy bilimlarning shakllanishi.
49. Qadimgi Yunoniston fanning shakllanishi.
50. Markaziy Osiyoda ilmiy bilimlarning shakllanishi va taraqqiyoti.
51. Ma'mun akademiyasi olimlarining jahon fani taraqqiyotiga qo'shgan hissalar.
52. XVI – XVII asrlarda Yevropada fan.
53. Fan taraqqiyotining tarixiy bosqichlari. Klassik fan. Noklassik fan, Postnoklassik fan.
54. Hozirgi zamon fani va uning o'ziga xos xususiyatlari.
55. Axborotlashgan jamiyat va fan.
56. O'zbekistonda ilm-fan rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.
57. Sivilizatsiya madaniy – ma'naviy rivojlanishning mahsulifatida.
58. Qadriyatlar tushunchasining mazmuni. Qadriyatlar-ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili.
59. Qadriyatlarining o'ziga xos jihatlari.
60. Qadriyatlar tizimi va ko'rinishlari.
61. Moddiy-ma'naviy qadriyatlar.
62. Axloqiy, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar.

63. Inson – ijtimoiy falsafaning o‘rganish ob’ekti sifatida. Inson va uning mohiyati.
64. Antropologiya – inson to‘g‘risidagi fan. Inson muammosining falsafa tarixida qo‘yilishi.
65. Antik davr falsafasida inson muammosi. Qadimgi Hindiston. Xitoy.
66. Markaziy Osiyoning qomusiy olimlari inson haqida.
67. Tasavvuf falsafasi va insonning ruxiy-ma’naviy kamoloti. XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan inson haqidagi qarashlar.
68. Tasavvuf falsafasi inson haqida.
69. Qadimgi Yunon faylasuflarining inson haqidagi qarashlari.
70. O‘rta asrlar G‘arbiy Yevropa falsafasi insonning mohiyati to‘g‘risida.
71. G‘arbiy Yevropa Uyg‘onish davri falsafasida inson muammosining qo‘yilishi. Inson va insonparvarlik g‘oyalar.
72. XVII –XVIII asrlar G‘arbiy Yevropa falsafasida inson muammosi va ma’rifatparvarlik g‘oyalar.
73. Hozirgi davr G‘arbiy Yevropa falsafasida inson muammosi.
74. Hozirgi zamon G‘arb falsafasi insonning mohiyati to‘g‘risida.
75. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda shakllangan inson, haqidagi qarashlar, jamiyatni insonparvarlashtirish g‘oyalari.
76. Insonda tabiiylik va ijtimoiylik. Inson hayotining mazmuni.
77. Inson, individ, shaxs, individuallik tushunchalari. Ularning o‘zigaxosligi va ular orasidagi uzviy aloqadorlik.
78. Shaxs haqidagi hozirgi zamon qarashlari.
79. Shaxsning shakllanishida oila, mahalla, ta’lim-tarbiya muassasalarining o‘rni.
80. Falsafa va ijtimoiy falsafa, ular o‘rtasidagi umumiylik va aloqadorlik.
81. Ijtimoiy falsafiy bilimlar qaysi davrdan shakllana boshlagan?
82. Ijtimoiy falsafaning jamiyatdagi o‘rni va asosiy funksiyalari.
83. 2017-2021 yillar O‘zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasining maqsadi.
84. XX asrdagi ijtimoiy-falsafiy qarashlar.
85. 2025 yil “Atrof muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” davlat dasturining mazmuni.
86. Jamiyat qonunlari rivojiga ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy omillar.
87. Ijtimoiy bilish ilmiy bilishning o‘ziga xos ko‘rinishi.
88. Ijtimoiy bilishning tarkibi va o‘ziga xos jixatlari.
89. Ijtimoiy (gumanitar) va tabiiy (ilmiy) bilimning mutanosibliigi vafarqi.
90. Jamiyat yaxlit tizim sifatida. Jamiyat hayotining asosiy sohalari.
91. Ijtimoiy bashorat ijtimoiy bilim shakli sifatida.
92. Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash (74-maqсад)
93. Ijtimoiy bilishdan qanday maqsadlar ko‘zda tutiladi?

94. Jamiyat–ijtimoiy falsafaning tadqiqot ob’ekti. Jamiyat haqidagi falsafiy qarashlar.
95. Ijtimoiy bilishning empirik bosqichida kandy metodlardan foydalaniladi?
96. Ijtimoiy bilish nazariy bosqichida qo’llaniladigan usullarni izohlang.
97. Ijtimoiy bilish tabiatni bilishdan qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?
98. Ijtimoiy bilish darajalari. Empirik va nazariy bilish.
99. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni
100. Axborotlashgan jamiyat. Fuqarolik jamiyati.
101. O’zbekistonda barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyati.
102. Jamiyat hayoti va taraqqiyotining tabiiy omillari.
103. Ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning vujudga kelish qonuniyatlari.
104. Ijtimoiy beqarorlikning ijtimoiy ofatlarning paydo bo’lishiga olib kelishi.
105. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarida ijtimoiy-falsafiy muammolar.
106. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning asarlari va nutqlarida yangi O’zbekistonni rivojlantirish masalalari
107. Ijtimoiy barqarorlik – jamiyat moddiy farovonligini ta’minlash, farovon turmush sharoitlarini yaratishning muxim asosi.
108. O’tish davrida jamiyat sotsial hayotining qayta qurilishi.
109. Ijtimoiy falsafada ijtimoiy barqarorlik va beqarorlik mezonlari.
110. Hozirgi kunda inson huquqlari, erkinliklari va kafolatlari.
111. Prezident Sh.Mirziyoyevning “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” asari haqida
112. Ijtimoiy falsafa fanining bahs mavzusi va vazifalari
113. Jamiyat rivojining yangicha nazariy-kontseptual asoslarini Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev hamda birinchi Prezidentimiz I.Karimov asarlariga tayangan holda asoslang.
114. O’zbekiston taraqqiyotining milliy yuksalish bosqichida harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi va uning ustuvor yo’nalishlari
115. Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” g’oyasini keng targ’ib etish orqali jamiyatda sog’lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish (71-maqсад)

**SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTINING TAYANCH
DOKTORANTURA IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN
MAXSUS FANLARDAN DA'VOGARLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Maksimal ball	100

Milliy g'oya va falsafa kafedrasi mudiri:

J.Ya.Yaxshilikov

Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani:

A.R.Jo'raqulov

